

OLIIY TA'LIM TASHKILOTI TALABALARINI FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO'G'RI HARAKAT QILISHNING PEDAGOGIK ALGORITIMI

Mamadboev Shoxrux Baxodirjonovich

Namangan davlat universiteti Katta-o'qituvchisi

E-mail: mamadboyev@mail.ru

Annotatsiya: Oliy ta'lim tashkiloti talabalarida favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishning mazmun-mohiyati, harakatlanish algoritmlari, talabalarda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, yordam berish ko'nikmalarining rivojlantirishni pedagogik asoslari tadqiq etilgan. Talabalarining kundalik va kelajakdagi soha faoliyatida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarning mazmun-mohiyati, tasniflari va to'g'ri harakatlanish qoidalari, favqulodda vaziyatlarning oldini olish tartiblari, xavfli ofatlardan muhofazalanish bo'yicha o'zini – o'zi boshqarishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyatlar, pedagogik algoaritm, psixologik barqarorlik, kognitiv, vaziyatga baho berish, evakuatsiya, rolli o'yinlar, emmotsional barqarorlik, strees, vaziyatli yondashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АЛГОРИТМ ПРАВИЛЬНЫХ ДЕЙСТВИЙ СТУДЕНТОВ ОРГАНИЗАЦИЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Мамадбоев Шохрух Баходиржонович

Намганского государственного университета Старший преподаватель

E-mail: mamadboyev@mail.ru

Аннотация: Изучены содержание, алгоритмы действий и педагогические основы формирования у студентов высших учебных заведений навыков действий в чрезвычайных ситуациях и оказания им помощи. Освещены содержание, классификации и правила правильного поведения в чрезвычайных ситуациях, возникающих в повседневной и будущей профессиональной деятельности студентов, порядок предупреждения чрезвычайных ситуаций, расширение педагогических возможностей самоуправления в защите от опасных катастроф.

Ключевые слова: чрезвычайные ситуации, педагогический алгоритм, психологическая устойчивость, когнитивная, ситуационная оценка, эвакуация, ролевые игры, эмоциональная устойчивость, стресс, ситуативный подход.

PEDAGOGICAL ALGORITHM OF CORRECT ACTIONS OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS IN EMERGENCY SITUATIONS

Mamadboev Shokhrukh

Namangan State University Senior teacher

E-mail: mamadboyev@mail.ru

Abstract: *The content, algorithms of action, and pedagogical foundations for the development of students' skills in emergency situations and assistance were studied among students of higher educational institutions. The content, classifications, and rules of correct behavior of emergency situations that arise in students' daily and future professional activities, procedures for preventing emergency situations, and expanding pedagogical opportunities for self-management in protecting against dangerous disasters were covered.*

Keywords: *emergency situations, pedagogical algorithm, psychological stability, cognitive, situational assessment, evacuation, role-playing games, emotional stability, stress, situational approach.*

KIRISH

Insonni xavfsiz hayotga tayyorlashda jamiyatning ehtiyojlariga muvofiq, pedagogik nazariya va amaliyot uyg'unligi asosida tarbiyalash usullari va vositalarini izlamoqda. Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish oliy ta'lim tashkiloti talabalarida umummadaniy va kasbiy kompetensiyalar birgalikda shakllanishi kerak.

Talabalarni favqulodda vaziyatlarni oldini olish, sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish va tezkor qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda uni rivojlantirishda bevosita ta'lim jarayonlarga asolanadi. "O'zbekiston-2030" strategiyasining "Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish" yo'nalishida mamlakatimiz aholisini yangi taraqqiyot davrida inson hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash darajasini oshirish, ta'lim tizimida xavfsizlik madaniyatini mustahkamlash hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Talaba-yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni komil inson etib tarbiyalash bilan birgalikda ularning xavfsizlik ko'nikmasini shakllantirish, ya'ni favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfli vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmasini rivojlantirish hamda boshqarish ijtimoiy zaruratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ilmiy tadqiqotlarda xavfli holatlarda to'g'ri harakatlanish va ularning oldini olishga oid ishlar keng o'rganilib, o'quv va faoliyat jarayonlardagi muammolarga to'xtalib o'tilgan.

Jahon olimlari amerikalik psixolog Abraxam Maslouning o'zining "Motivatsiya va shaxsiyat" asarida insonlarni ehtiyoj ierarxik modelini ishlab chiqqan bo'lib, odamlarni asosiy ehtiyojlarini 7 turga ajrtib bergan [44; 754-b.], bular:

- fiziologik ehtiyoj;
- xavfsizlik zarurati;
- tegishlilik hissigga ega bo'lish;
- hurmatga bo'lgan ehtiyoj;
- kognitiv ehtiyoj;
- estetik ehtiyoj;
- o'z-o'zini nomoyon etishga bo'lgan ehtiyojlardir.

Insonlarni fiziologik ehtiyojlari qondirilgandan so'ng, uning asosiy ehtiyoji xavfsizlik masalasidir. Insonlarda xavfsizlik ehtiyoji qonun va tartib, barqarorlik, hodisalarni oldindan aytib berish, qo'rquv, kasallik va tartibsizlik kabi tahdid qiluvchi kuchlaridan ozod bo'lish ehtiyojlari kiradi. Shuningdek ushbu ehtiyoj uzoq muddatli omon qolishga qiziqishni aks ettiradi. Insonlarning faoliyatida xavfsiz ishni afzal ko'rish, turli tabiiy va texnogen xavflardan muhofazalanish va ularning oldini olishga qaratilgan ehtiyoj hisoblanadi. Demak, ilmiy olim A. Maslouning ierarxik modelidan shuni tafakkur qilishimiz mumkin bo'ladiki, insonlarning asosiy ehtiyojidan biri bu -xavfsizlikdir. Xavfsizlik masalasi ya'ni turli tabiiy va texnogen xavflar (favqulodda vaziyat)dan muhofazalanish tarixda ham va zamonaviy dunyoda ham e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan sohadir.

Sh.R.Akobirov ilmiy tadqiqotida "oliy ta'lim muassasalarida "Hayot faoliyati xavfsizligi" kursini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli mustaqil fikrlash faolligini jadallashtirishga qaratilgan "xavfsiz yashash", "hayotiy ko'nikmalar", "texnogen tahdid", "xavfsizlik" tushunchalari maqsadini modernizatsiyalash hamda ta'lim subyektlarining harakat xaritasini "Fleshmob" va "Skamper" texnologiyalariga mos idientiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirish"ga qaratilgan ilmiy izlanish olib borgan.

Tadqiqotchi R.R.Ro'ziyev o'zining ilmiy ishida "o'quv mashg'ulotlarida yong'in xavfsizligi ko'nikmalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan metodikasi talabalarda axborot tarqatish, mas'uliyatni oshirish, hamkorlikda ishlash, xavfsizlik

mas'uliyatini oshirish kabi yong'in xavfsizligi madaniyatini rivojlantirishni ta'minlovchi kognitiv, motivatsion va kasbiy faoliyatli baholash me'zoni" ishlab chiqqan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha mavjud ko'nikmalari bugungi kundagi holati muhokama qilinadi. Shuningdek uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Mamalakatimizning oliy ta'lim tashkilotlaridagi hayot faoliyati xavfsizligi bakalavriat ta'lim yo'nalish talabalarini mavjud ko'nikmalari anonim so'rov, test, suhbat va amaliy-faoliyatli harakatlari tahlili qilindi. Tahlil so'rov metodlarida talabalarda favqulodda vaziyatlar bo'yicha kognitiv faolligi o'rganiladi. Test usulida talabalarni xavf va xavfsizlik bo'yicha nazariy ko'nikmlarini o'rganishlar tahlil qilib boriladi. Suhbat va amaliy-faoliyatli metodida tinglovchilarni xavf va xavfsizlik tushunchalari mavjudligi, vaziyatga psizologik barqarorligi, amaliy-faoliyatli usullarida kognitiv faolligini amalda qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqot predmeti bilan bog'liq holda talabalarda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirish va boshqarishning mazmunli komponentiga murojaat qilish zaruriyati yuzaga keldi. Talabalarda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy o'ziga xosligi psixik jarayonlar, tezkor xotira, diqqat, xulq-atvor, boshqarish va yordam berish xissining aniq namoyon bo'lishi hissoblanadi. Yuqorida bayon etilgan fikrlar tadqiqot mantig'i, ilmiy adabiyotlar tahlillari va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish uchun optimal algoritm ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Biz talabalar uchun balki har qanday insonlarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish, mustaqil qaror qabul qilish, o'zini-o'zi boshqarish va boshqaruv jarayonlari uchun universal (hamma soha vakillari uchun zarur) 3V algoritmi ishlab chiqdik. 3V algoritmi favqulodda vaziyatlar sharoitida tezkor, ortiqcha emotsiyalarga berilmaslik va vaziyat yuz berganda xavf manbaidan tizimli tark etishni ta'minshga xizmat qiladi.

3V algoritmi bu:

V – vaziyatga baho berish;

V – vahimaga berilmaslik;

V – vaziyat yuz bergan joyni tezkor, tizimli tark etish.

1-jadval

V	Vaziyatga baho berish. Favqulodda vaziyatlarning xususiyati va manbayi hamda ko'lamiga baho beriladi. Bu xavfni kamaytirish va to'g'ri qaror qabul qilish uchun zarur.
V	Vahimaga berilmaslik: Favqulodda vaziyatda sovuqqonlikni saqlash, vahimaga tushmaslik, qo'rquv, kuchli stressni yengish muhim hisoblanadi.
V	Vaziyat yuz bergan joyni tezkor, tizimli tark etish: Agar vaziyat xavfli bo'lsa, joyni tez va tartibli ravishda tark etish zarur yoki vaziyat xususiyatidan kelib chiqqan holda xavfsiz hududga ko'chish demakdir.

3V algoritmining maqsadi – talabalarni favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish va boshqarish ko'nikmasini tashkil etishdan iborat. 3V algoritmining afzalliklari:

- kognitiv-psixologik nuqtai nazaridan, qisqartma shaklidagi axborot birliklari talabalarning xotirasida uzoqroq saqlanadi. Ayniqsa, xavfli holatlar sharoitida stress holati ostida ishlayotganda ongga qisqa va aniq ko'rsatmalar samaraliroq ta'sir ko'rsatadi;

- ushbu metod talabalarning muqarrar xavf oldida shoshilinch qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Har bir bosqich vaziyatni aniqlash, muqobil yo'llarni baholash va zudlik bilan harakat qilish hamda xavfdan ehtiyotkorlik bilan uzoqlashishning mantiqiy zaminini yaratadi;


- 3V algoritmi favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha universallik (zilzila, yong'in, portlash, texnogen avariylar kabi turli favqulodda holatlar uchun birdek qo'llanilishi mumkinligi bilan ajralib turish)ni tashkil etishi;

favqulodda vaziyatlarda vahimaga berilmaslik, vaziyatni analitik baholab, oqilona harakat qilish uchun yo'nalish beradi.

3V algoritmining afzalliklari:

- kognitiv psixologik nuqtai nazaridan, qisqartma shaklidagi axborot birliklari talabalarning xotirasida uzoqroq saqlanadi. Ayniqsa, xavfli holatlar sharoitida stress holati ostida ishlayotganda ongga qisqa va aniq ko'rsatmalar samaraliroq ta'sir ko'rsatadi;
- ushbu metod talabalarning muqarrar xavf oldida shoshilinch qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Har bir bosqich — vaziyatni aniqlash, muqobil yo'llarni baholash va zudlik bilan harakat qilish — xavfdan ehtiyotkorlik bilan uzoqlashishning mantiqiy zaminini yaratadi;
- 3V algoritmi favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha universallik (zilzila, yong'in, portlash, texnogen avariya kabi turli favqulodda holatlar uchun birdek qo'llanilishi mumkinligi bilan ajralib turish)ni tashkil etishi;
- favqulodda vaziyatlarda vahimaga berilmaslik, vaziyatni analitik baholab, oqilona harakat qilish uchun yo'nalish beradi.

Bu esa, psixologik jihatdan bosim ostida qolgan shaxslarga ijobiy ruhiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shaxs, qo'rquv va vahima o'rniga aniqlik va harakatga yo'naltirilgan mental modelga ega bo'ladi. 3V algoritmining bosqichlari va pedagogik ta'sir mexanizmlari quyidagicha ifodalanadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarda 3V algoritmini pedagogik ta'sir mexanizmi

Favqulodda vaziyatlarda 3V metodidan foydalanish xavfli vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilishda aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Bu yondashuv talabalarning hayoti va sog'ligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSALAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish qiyin bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu sizning va yaqinlaringizning xavfsizligi hamda farovonligini ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

Ta'lim jarayonlarida favqulodda vaziyatlarda yong'inlar, evakuatsiya va yordam ko'rsatishda metod hamda prodseduralarni soddaligi talabalarda eslab qolishi hamda xavflar yuzaga kelganda ushbu usullardan foydalanishi bilan samaraliroqdir. Favqulodda vaziyatlarda ong ostida qo'rquv va vaxima turganligi bois oddiy usullarni eslash va uni qo'llash mumkin bo'ladi. Shu bois, 3V algoritmi eng maqbul hamda tezkor xotirada qolishi bilan muhim hisoblanadi. 3V algoritmi talabalarda balki barcha uchun xavfli vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha umumiylik degan xulosalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akobirov Sh.R., Oliy ta'lim muassasalarida "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'quv kursini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Dissertatsiya. Navoiy-2024. B, 96-98
2. Abdullayeva G.A., Maktabgacha yosh bolalariga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish. Dissertatsiya. Toshkent-2025. B, 63-98
3. Ro'ziyev R.R., Bo'lajak muhandislarda yong'in xavfsizligi ko'nikmasini takomillashtirish metodikasi. Dissertatsiya. Toshkent-2025. B, 126
4. Xusanova S.I., "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini tashkil etishning meyoriy-huquqiy asoslari". Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. 2024. B, 11-19
5. Mamadboyev Sh.B. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining ta'lim jarayonida bugungi kundagi muammolari va ularning yechimlari. «Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion yondashuv, ilmiy ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar» mavzusidagi yosh olimlarning II respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami T.: 2020 y. B, 295-296
6. Holland I.S., Mozeliuss P., Skevik T.O., Implementation of Emergency Management Exercises as Alternate Reality Games – Students' Perceptions. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET)*, 17(06), 2022., 181–193. <https://doi.org/10.3991/ijet.v17i06.27937>
7. Bakhodirjonovich, Mamadboev Shokhruxh. "Conceptual foundations of developing correct actions of students in emergency situations" In The World Of Science and Education 15 январь ЭН2 (2025): 98-103.